

TOHIR MALIKNING “CHARXPALAK” QISSASIDA YETIMLIK FOJEASI

Eshmatova Munisa Zokirovna

ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi.

munisaeshmatova11@gmail.com tel: +99895-191-85-10

Rasulova Sarvinoz

Ilmiy rahbar. F. f. b. f. d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20664582>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Tohir Malikning “Charxpalak” qissasida tasvirlangan yetimlik fojeasining uch xil ko‘rinishi badiiy-estetik hamda ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Qissada jamiyatdagi turli xil taqdiralar orqali inson hayotidagi sinovlar, jumladan, erkakning o‘z ayoliga nisbatan bevafoqligi sababli oilaning parchalanishi, ayolning erini o‘sha xiyonat ustida ko‘rgan jarayondagi ichki iztiroblarini faqat sukut bilan qabul qilishi, uni hech kimga oshkor eta olmasligi hamda ota-onaning ajrashuvi natijasida farzandlarning o‘rtada mehr va oilaviy muhitdan mahrum bo‘lib, ruhiy yetimga aylanib qolishi bayon etiladi. Shuningdek, oilaviy hayotda farzandning ko‘ngil istaklarini ortiq darajada bajo keltirish, taltaytirib o‘stirish, nazoratsiz va mas‘uliyatsiz tarbiyalash oqibatida uning ma‘naviy olami izdan chiqib, jinoyat va “yaltiroq” hayot havaslariga berilishi masalalari ochib beriladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, qissada yoshlar ma‘naviy dunyosining, har jihatdan to‘g‘ri tarbiyalanmaganligi sababli or-nomus, sharm-hayo kabi insoniy qadriyatlarining susayishi natijasida hayoti barbod bo‘lishi bugungi kun yoshlarida ham uchrayotgan muammolar bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, qahramonlar taqdiri orqali yoshlarning sharqona tarbiya va urf-odatlardan uzoqlashishi hamda o‘tkinchi hisslarning asiriga aylanishi kabi ziddiyatlar asarning zamonaviy ahamiyatini yanada oshirgan.

Kalit so‘zlar. Charxpalak, Tohir Malik, inson taqdiri, hayot sinovlari, mehr-oqibat, insoniylik, halollik, pastkashlik, vijdon, yetimlik, hasad, poraxo‘rlik, xiyonat, tubanlik, maishatparastlik, jinoyat, qotillik, adolatsizlik, oilaviy ajrim, tarbiya, ma‘naviy inqiroz, yoshlar masalasi, or-nomus, oilaviy qadriyatlar, ruhiy yetimlik.

Аннотация. В данной статье с художественно-эстетической и социально-культурной точек зрения анализируются три формы трагедии сиротства, отражённые в повести Чархпалак выдающегося представителя узбекской литературы Тоҳир Малик.

Через различные человеческие судьбы в произведении раскрываются жизненные испытания, в частности распад семьи вследствие супружеской неверности мужчины, внутренние страдания женщины, ставшей свидетелем измены мужа и вынужденной молча переносить свою боль, не имея возможности поделиться ею с окружающими.

Также рассматривается проблема детей, которые в результате развода родителей лишаются любви, заботы и полноценной семейной среды, превращаясь в так называемых «духовных сирот». Кроме того, в повести освещаются последствия чрезмерного потакания желаниям ребёнка, его избалованного, бесконтрольного и безответственного воспитания, что приводит к деформации духовного мира личности и её увлечению преступностью и иллюзорным блеском лёгкой жизни. Актуальность статьи обусловлена тем, что показанные в произведении процессы нравственной деградации молодёжи, ослабление таких общечеловеческих ценностей, как честь, достоинство и стыдливость вследствие недостаточного воспитания, созвучны проблемам, наблюдаемым среди современной молодёжи.

Особую значимость произведению придаёт изображение отчуждения молодых людей от традиционного восточного воспитания и национальных обычаев, а также их подверженности мимолётным чувствам и соблазнам.

Ключевые слова. Чархпалак, Тоҳир Малик, человеческая судьба, жизненные испытания, милосердие, человечность, честность, подлость, совесть, сиротство, зависть, взяточничество, измена, нравственное падение, культ наслаждений, преступность, убийство, несправедливость, развод, воспитание, духовный кризис, проблемы молодёжи, честь и достоинство, семейные ценности, духовное сиротство.

Abstract. This article examines three manifestations of the tragedy of orphanhood depicted in *Charxpalak*, a novella by the prominent Uzbek writer Tohir Malik, from both artistic-aesthetic and socio-cultural perspectives. Through the portrayal of diverse human destinies, the work explores various trials of life, including the disintegration of the family caused by a husband's infidelity, the profound psychological suffering of a woman who witnesses her spouse's betrayal and endures it in silence, and the emotional deprivation experienced by children who, as a consequence of parental divorce, are deprived of parental affection and a healthy family environment, thereby becoming spiritually orphaned. Furthermore, the novella highlights the adverse effects of excessive indulgence in fulfilling a child's desires, permissive upbringing, and the lack of parental supervision and responsibility, which may lead to the deterioration of the individual's moral values and attraction to criminal activities and the illusion of a glamorous lifestyle. The relevance of this study lies in the fact that the issues presented in the novella—particularly the weakening of such moral values as honor, modesty, and dignity due to inadequate upbringing—remain highly relevant to contemporary youth.

Moreover, the depiction of young people's alienation from traditional Eastern values and customs, as well as their susceptibility to fleeting emotions and desires, enhances the modern significance of the work.

Keywords. Charxpalak, Tohir Malik, human destiny, life challenges, compassion, humanity, honesty, meanness, conscience, orphanhood, envy, bribery, betrayal, moral degradation, hedonism, crime, murder, injustice, divorce, upbringing, spiritual crisis, youth issues, honor and dignity, family values, spiritual orphanhood.

KIRISH. Tohir Malik o'zbek adabiyotida yetim bolalar ruhiyati, ayniqsa, o'smir yoshdagi, balog'at ostonasidagi yoshlar psixologiyasi va ma'naviy muhit fojeasini eng murakkab va chigal jihatlarigacha ko'rsatib bera olgan yozuvchidir. Uning asarlarida yetim bolalar taqdiri badiiy to'qima emas, balki davrning eng dolzarb muammolarini o'zida mujassam etuvchi va jamiyatning ijtimoiy holatini ko'rsatuvchi ma'rifiy-axloqiy mavzular sharhiga bag'ishlangan targ'ibotdir. Adib qissalarida yetim bolalar qismati jamiyatdagi oilaviy muhit, tarbiya, nafs va jinoyat o'rtasidagi uzviylik orqali yoritiladi.

Xususan, adibning "Charxpalak" qissasida sotsialistik tuzum davrida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, insoniy qusurlar bilan birga shu tuzum ta'siridagi insonlarning fojeali qismati yetimlik musibatlarini bilan mushtaraklikda bayon etilgan. Qissada hasad, poraxo'rlik, insoniy qadriyatlariga xiyonat, tubanlik, birovni ko'ra olmaslik, maishatparastlik va shunga o'xshash qusurlar turli obrazlar vositasida aks ettiriladi.

Barchamizga sir emaski, bugungi kunda jamiyatda nikohsiz tug'ilgan, bolalar uyiga tashlab ketilgan, hali ota-onalikka tayyor bo'lmay dunyoga keltirilgan bolalarning yoyilib borishi yoki ota-onalar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi, arzimagan va jiddiy sabablar

tufayli ajrimlar sonining ortishi, ota-onalar farzandining faqat moddiy tomonini qondirib, taqdiri haqida o'ylamay, yillab chet davlatlarda ishlab yurishi hamda boshqa bir sabablar bilan ijtimoiy yetim bolalarning ko'payishi hamda farzand tarbiyasidagi muammolar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, oila bu – bola shaxsining shakllanishida eng asosiy muhit sanaladi. Biroq, afsuski, ota-ona, er-xotin o'rtasidagi o'zaro ishonchning yemirilishi yoxud ota-ona faqat o'z manfaatlarini o'ylab, turli bahonalar, xiyonat, kelishmovchilik, turli nizolar va oilaning buzilishi natijasida bola to'la-to'kis va sog'lom oila muhitidan mahrum qolib, ruhan va jismonan yetimlik holatiga tushib qolmoqda. Albatta, bunday vaziyat bolaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi, ya'ni bu kabi psixologik stress uning ichki dunyosiga kuchli zarba berib, unda qayg'uli iztirob, e'tiborsizlik hissi va hayotga nisbatan noto'g'ri qarashlarning shakllanib borishiga turtki bo'ladi. Darhaqiqat, bunday keskin vaziyatda tarbiya ham yetarli darajada bo'lmagan ayrim o'smirlarda jinoyatga moyillik, hayotga yengil qarash va axloqiy buzilish kabi salbiy vaziyatlar yuzaga kelib, turli nopok, buzg'unchilik bilan bog'liq ko'chalarga kirib qolish ehtimoli yuqori. Bu esa ularning kelajagini, hayotini tubdan izdan chiqarib, ma'naviy tanazzulga olib keladi: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarshi bilan bog'liq.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [Mirziyoyev, 2017].¹ Albatta, bu kabi muhim vazifalar jamoatchilikka hamda jamiyatning har bir vakiliga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek adabiyotida Tohir Malikning ushbu asari insoniyat taqdiri, uning ruhiyati, oilaviy munosabatlar hayotning kutilmagan burilishlari, tarbiyaning farzand kamolotidagi o'rni hamda turli xil yetimlik fojealarini tasvirlovchi hamda davrning eng haqqoniy va hech qachon kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy va og'riqli muammolarni mahorat bilan tasvirlovchi asar ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Ushbu qissa nafaqat yozuvchi ijodida, balki o'zbek qissachiligi taraqqiyotda ham o'ziga xos bosqich hisoblanadi. Adib qissalariga singdirilgan nozik, ammo kuchli ijtimoiy sharh davrimizning dolzarb va axloqiy muammolariga oydinlik kiritadi. Xususan, "Bolalarni jamiyatning mukammal emasligidan azob chekayotgan qahramon sifatida talqin etish XX asr o'zbek qissalari uchun xarakterli jihat hisoblanadi. Shu bilan birga qissalardagi bola obrazlariga kattalar dunyosining illat va kulfatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos oyna vazifasi ham yuklangan.

Ya'ni jamiyatning ma'naviy tanazzuliga bola obrazi soflik ko'zgusi sifatida tutilgan" [Umurzakov, 2022; 124].² Darhaqiqat, yozuvchi asarlarining nihoyatda o'tkir syujeti orqali chuqur psixologik tahlil va jamiyat va davrning ijtimoiy muammolarini dadil ko'tarishi, yoshlar, bolalar hayotiga bo'lgan qiziqishi bilan alohida, o'ziga xos o'rin egallagan. Uning yaratgan qissa, roman va hikoyalarida insoniyat taqdiri, yoshlar tarbiyasi masalalari hamda jamiyat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar obrazlar vositasida har jihatdan o'z asosini topgan.

¹ Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib, so'zlagan nutqidan.

² Umurzakov R. XX asr o'zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...diss. – Toshkent, 2022. B. 124.

Xususan, adibning qissalari syujetidagi yetimlar obrazi alohida o'ringa ega. Ushbu obraz syujet markazidagi asosiy ramziy timsol bo'lib, avvalo, asarning muhim ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, ijtimoiy hayotdagi adolatsizlik, zulmning avj olishi bola obraziga murojaatni kuchaytiradi" [Umurzakov, 2022; 91].³ Ya'ni yozuvchi yetimlar obrazi orqali jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhit illatlarini, muammolarni, fosh etib, insoniy qadriyatlar va tarbiya masalalarini keng yoritadi.

"Charxpalak" qissasida yetimlik muammosi, avvalo, bevosita emas, balki bilvosita, ya'ni mustabid tuzum qurbonlarining farzandlari taqdiri orqali aks etadi. Shuningdek, asarda yetimlik uch xil holatda namoyon bo'ladi. Shulardan birinchisi, ijtimoiy yetimlik – tuzum adolatsizligi oqibatida otasini yo'qotgan bolalarning taqdiri bilan bog'liq yetimlik. Bunday qatlamga misol qilib, qissadagi Latofat obrazini olishimiz mumkin. Ushbu obraz orqali yozuvchi or-nomusi badnafs va qabih kimsalar tomonidan toptalgan ma'naviy va jismoniy himoyasiz, ayni damda, shahvoniy nafs istaklarining qurboniga aylangan bir qizning fojeasi o'sha muhitdagi insoniylikning ham eng tuban fojeasi ekanligini isbotlaydi. Chunki, yetimlik bilan bog'liq sinovlar, muammolar va ma'naviy-axloqiy buzilishlar insoniylikka xos mezonlar darz ketgan nuqtadan boshlanadi. Yuqoridagi obraz – Latofat obrazida yoshlikdagi sof tuyg'ulari poymol qilinib, bokira xayollarini to'zgitib, yolg'ondan iborat o'tkinchi ho-yu havaslar, uydirma va'dalar, "oshiqlik" mahorati bilan bir lahzalik nafsiga barham berish uchun foydalangan o'n uchinchi savxoz direktori To'xtamish Omonturdiyevning g'ayriqonuniy yo'llar bilan muvaffaqiyatga erishishiga odatlanib qolishi va buning uchun hech qanday pastkashlikdan qaytmasligi ko'rsatilsa, Komilning halolligi, vijdonliligi orqali ilmiy kashfiyotlarining ortga surilishi qarama-qarshi qo'yiladiki, jamiyatdagi muammolar yuzaga chiqishi kuzatiladi. [Rasulova, 2025;14].⁴ Albatta, bunday razil kimsalar murodlari hosil bo'lgach, Latofat singari sodda, o'smir yoshdagi qizlarning hayotini bir matoh bilib, uni qo'l ostidagi bir ishchisiga "oppoq qanday" o'tkazib, majburiyatdan, javobgarlikdan va sirlarining fosh bo'lishdan qo'rqib, yetim qizga tahdid qilish yo'li bilan o'zini jinoyatdan chetga olmoqchi bo'lishi, Komil singari toza vijdonli insonlarni ham o'z domiga tortib, oxirida esa uning yosh umriga zomin bo'lishi har birimizning yuragimizda jaholatga, tubanlikka qarshi nafrat uygotadi.

Yozuvchi qissalarida o'smirlik davri bolaning taqdirini ijobiy yoki salbiy tomonga hal qiladigan chorraha, shu bilan birga ushbu chorrahadagi eng xavfli manzil sifatida talqin qilinadi.

Albatta, bunday paytda, xuddi Latofat singari bolalar ruhiyatida evrilishlar yuzaga kelib, ular u yoki bu shaklda o'zini namoyon etadi. Bunday paytda ularni to'g'ri hayotga yo'naltira olish va hissiyotlarini nazoratga olish muhimdir: "O'smirlar dunyosiga oid kechinmalarni aniqlash, ularni tahlil qilish, o'smirlarni to'g'ri hayot yo'lini tanlab olishiga sharoit yaratib berish, ma'naviy hayotimizni izdan chiqaradigan jiddiy xatarlar borligini ko'rsatib berish hamda tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish adabiyot o'qitishning oldidagi muhim vazifalardan biridir" [Norboboyeva, 2021].⁵ Shuning uchun ham ijodkorlar, yozuvchi va shoirlar jamiyatdagi muammo va kamchiliklarni badiiy adabiyot orqali ko'rsatishga harakat qilishadi. Asarda ushbu o'ylamay bosilgan qadamni deb Komil kabi bir pok agronom yigitning umri barvaqt xazon bo'ladi: "Latofatxon, oy Latofatxon... Shuni o'qishga kiritaman demaganimda, Komilga yaqinlashmas edim.

³ Umurzakov R. XX asr o'zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...diss. – Toshkent, 2022. B. 91.

⁴ Rasulova S. Tohir Malik qissalari poetikasi. Filol. fan. b. fals. dok. diss. – Toshkent, 2025. – B. 14.

⁵ Norboboyeva M. "Alvido bolalik" qissasida yetim bola obrazining poetik talqini // jamiyat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021.

Chiroyli bo'lgani bilan turgan-bitgani naqs ekan buning. Shunga o'ralashganimdan berg'alva-ya... Lekin ofatijonlikka ofatijon... Endi bir umr traktorhiga yem bo'lib yuradi.

Qovunning yaxshisini it yeydi, deganlari shu-da.

Mavluda ham Komilga yem bo'ldi-ku shunday qiz-a..." [T. Malik, 2018; 27].⁶ Ushbu jumalardan ma'lumki, direktor bu yerda Latofatni kamsitib, xalqona ibora hamda kinoya bilan yaxshi narsa har doim ham munosib odamga nasib qilmaydi, degan mazmundagi haqorati yetmaganiday, uni deb ishi yurishmay, omadsizlikka uchraganligiga ishora qilib o'tgan. Direktor oilali, bola-chaqali erkak bo'lishiga qaramay, mansabi, omonat farog'ati ortidan bosar-tusarini bilmay, oxir-oqibatni o'ylamay-netmay Latofatni avval badnom qilib, keyin gunoh evaziga paydo bo'lgan homilasini nobud qilishi, undagi ham ayollik, ham onalik tuyg'ularini so'ndirib, bir begunoh bolaning qotiliga aylandi. So'ng o'z obro'sini o'ylab, jinoyatini yashirish maqsadida uni xodimlaridan biriga xotinlikka tuhfa qiladi. Bu harakat undagi muammoni hal etish emas, aksincha, yopdi-yopdi qilish, qolaversa, qilgan jinoyatini berkitish sanaladi. Ya'ni bir himoyasiz, yetimning hayoti bir buyumdek duch kelgan odamga topshirilishi uning inson sifatida naqadar tahqirlanganligini isbot etadi. Bu o'rinda Latofat yetimlikning eng fojeaviy hamda achinarli ko'rinishi hisoblanadi. Chunki, bu qahramon jamiyat va oilaviy muhitdagi befarqlik, tarbiyadagi xatolik o'z va o'zgalars nafsining jabrlanuvchisiga aylandi. Uning qismati barcha zamonlar uchun bir ogohlantirishdir. Muallif bu orqali kitobxonni qayerda-ki yetimning, or-nomusi va haquhuqlari poymol bo'lib, ko'z yoshlari haqsizlik uchun behuda to'kilsa, o'sha jamiyatda insoniylikka barham berilib, halokaga yuz tutadi, degan mazmunni ifodalaydi.

Asarning keyingi o'rinlarida ushbu yetimlik toifasiga kiruvchi "tirik yetimlik" va shu bilan birga ayolning matonati, cheksiz irodasi mehr-muhabbati hamda sadoqatining tog'lardan-da yuksak ekanligini namoyon etuvchi obraz – Mavludadir. Ushbu qahramon taqdirini tahlil qilganimizda, uning taqdiri faqat otasining oilasiga xiyonati bilan emas, balki onasining bu og'ir ko'rgilikdan keyingi hayoti bilan ham o'zaro bog'liq ekanligini anglashimiz mumkin. Chunki, uning onasi erini xiyonat ustida ko'rib qolishiga qaramay, janjal-to'polon ham ko'tarmasdan, indamay har ohi-faryodi, dardini ichiga yutib, hech narsaga izoh ham so'ramasdan, ayol sifatidagi sha'ni qanchalik kamsitilsa-da, jim ketadi. Bu esa uning shu darajada bardoshli, shu bilan birga erining bunday jafoni unga qanday ravo ko'rganiga so'z topolmaslik yoki bo'lmasa, hayratda, cheksiz iztirobda qolganligi va undan qattiq ranjiganligini bildiradi. Bunday vaziyatda ishonchning sinishi sabab, ayolning jim qolishi, alamini, fojeasini ichiga yutishi orqali dalillanadi. Mavludani yolg'iz boshi bilan otasizligini bildirmaslikka harakat qilib, ishlab, farroshlik qilib, voyaga yetkazdi. Mavluda otasining xiyonatini bilsa-da, undan nafratlansa-da, onasining halol mehnati, tarbiyasi va onasi kabi jasurligi uchun har xil yomon yo'llarga kirib ketmadi, "oyog'i toymadi": "Ayol kishi faqat bir narsa uchun – ko'ngilxushlik, ko'ngil dardini bosish uchun yaratilgan" [T. Malik, 2018; 18].⁷ deb hisoblovchi To'xtamish Omonturdiyev kabi ishrattalab, kibor, manfur, iblis kimsalarning tuzog'iga ilinmadi. Ammo u otasining tirik bo'la turib ham yonida emasligi, onasining esa shuncha dardni, o'ziga nisbatan haqoratni qanday qilib haligacha yuragida saqlab kelganligi hamisha uni azoblab kelardi. "Oilaning yo'qolishi, kichik inson hayotidagi eng og'ir fojea bo'lib, uning qalbida chuqur iz qoldiradi. Va taqdirini uning atrofida dunyoga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartiradi" [Rahimova, 2023].⁸

⁶ Charxpalak. [Matn]: qissa / T. Malik. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 27.

⁷ Charxpalak. [Matn]: qissa / T. Malik. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 18.

⁸ Rahimova D. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuvi mazmuni. "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konferensiya. <http://doi.org/10.5281/znedo.10200181>. 2023 yil, 21-oktyabr.

Mavludaga bo‘lib o‘tgan barcha voqealar hayotida dars bo‘ldi va u onasi sababli ham u hushyor, ehtiyotkor, o‘z qadrini biladigan va hayot sinovlari oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi, e‘tiqodi mustahkam, hamisha to‘g‘ri yo‘lni tanlay olgan andishali, oq-qorani ajrata oladigan, tarbiyasi qiz bo‘lib ulg‘aydi.

Turmush o‘rtog‘i – Komilga ham farzandsizligini hisobga olmaganda, sadoqatli umr yo‘ldosh bo‘ldi. Bundan bilishimiz mumkinki, hayotda hamma yetimlar bolalar ham kutilmagan muammolar, qarshisida esankirab qolmaydi, yengilavermaydi. Bunga Mavluda obrazi yaqqol misoldir. Agar bolaning yonida iymonli, insofli halol, oqila, sabrli bitta onasi turib ham, eng muhimi, bola hayotida ruhiy tayanch bo‘lib, mehr va tarbiya berib, g‘amxo‘rlik qila olsa, bu bolaga xavfsizlik hissini beradi va u hech qachon yetimligini sezmaydi, salbiy odatlarga berilmaydi.

Yetimlikning uchinchi ko‘rinishi ma‘naviy yetimlik – jamiyat e‘tiboridan chetda qolgan, hech kim tarbiyasini nazorat qilmagan, “qarovsiz” bolalardir. Tohir Malikning ushbu “Charxpalak” qissasida ham ma‘naviy yetimlik muammosi va jinoyatchilik boshqa qissalaridagi kabi yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Xususan, asarda Qodir va bir necha katta-kichik o‘smirlar qurolli odamlar qo‘riqlaydigan bankka hujum qilib, “Banditizm” deb nomlangan jinoyatni sodir etadi. Qodir hatto o‘zini o‘g‘riboshi, deya e‘tirof etib, ashaddiy jinoyatchi sheriklarini himoya qilishga urinadi va qilgan jinoyatidan, aybidan sira ham afsuslanmaydi. Hatto o‘g‘rilik qilayotganda ham qo‘li qaltiramaydi, yuragi bezovta bo‘lmaydi.

Ota-ona esa bolasiga yordam berishni, jazosini yengillatishini istab, o‘zini har tomonga urishadi. Bolaning opasi ovsini tergovchi Nozimadan pora bilanmi, nima bo‘lsayam, uni qutqarib, ishini hal qilib berishini so‘rab, murojaat qilishadi. Tergovchi bolalar og‘ir jinoyatga qo‘l urganligini, ularni deb bir nechta odam yaralanib, o‘lim ahvolda ekanligini, bolasining hamma aybiga iqrorligini va albatta, jinoyatiga yarasha jazosini ham olishi kerakligini aytadi.

Ota-ona bunga ham qanoat qilmaydi. Nozima Qodir bilan gaplashganida, ming bora pushaymon bo‘lib, uning bunday bezbet, axloqiy inqiroz yoqasiga qachon kelib ulgurganligini anglolmay qoladi. Axir Qodir bezori, jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmagan-ku, uni qora kursiga yo‘llagan odamlar endi zir yugurishayapti: “Oy tug‘sa ham o‘g‘limga tug‘sin, kun tug‘sa ham o‘g‘limga tug‘sin deb, havolatingning achchiq mevasini totib, boshlarini qaysi tomonga urishni bilmay, faryod chekishyapti-ku. “Menga shunaqa hayot yoqadi” [T. Malik, 2018; 99-100]⁹, – deydi. Chunki ota-onasining yelib-yugurib, qutqarib olishini biladi. Shuning uchun ham tumshug‘i osmonda. Qutqarolmaganda ham qamoqdan chiqsa, quchoq ochib, kutib olishini ham yaxshi biladi. Shuning uchun ham bu yo‘ldan qaytmaydi. Bunga kim aybdor, albatta, uni shu darajaga olib kelgan, tarbiyasiga bevarq bo‘lgan ota-ona va jamiyat aybdor. Bu kabi bolalar bugun bu jinoyatni qilib, zarracha vijdoni qiynalib, pushaymon bo‘lmadimi, ertaga bundan ham katta va qaltis jinoyatlarni bemalol qiladi. Aslida jamiyat uchun katta-kichik har bir jinoyat xavfli sanalib, uni ichidan zararlaydi. Adib ta‘biricha, jinoyatchi tug‘ilamaydi, balki ma‘naviy yetimlik muhitida yetishtiriladi. Jinoyatga tap tortmasdan qadam qo‘ygan o‘smir o‘zining ko‘rilmagan mehri va tarbiyasi uchun jamiyatdan intiqom olayotganligi nihoyatda achinarli holatdir. Kundalik hayotimizda tarbiya haqidagi gaplar ko‘paygani sari, amalda uning kuchi nazarimizda kamayib borayotgandek tuyulishiga asosiy sabab, bugungi kunda tarbiya quloq bilan emas, balki ko‘z orqali aks etyapti. Shuning uchun o‘smirlarning dardiga o‘z vaqtida malham bo‘lmasak, erta bir kun butun bir jamiyat halokatga yuz tutishi mumkin.

⁹ Charxpalak. [Matn]: qissa / T. Malik. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti, 2018. – B. 99-100.

Zero, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya – yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" [A. Avloniy, 1992; 5].¹⁰ Tohir Malik ushbu "Charxpalak" qissasida yetim bolalar obrazlari orqali jamiyatdagi bir qator ijtimoiy muammolar, avvalo, mustabid tuzumning oilalarga ta'siri, siyosiy ta'qiblar natijasida otasi yoki onasi jazolanganlar farzandlari avtomatik tarzda ijtimoiy yetimga aylanadi. Jamiyat ularga befarqlik va nafrat bilan qaraydi. Keyingi asosiy muammolardan biri, jamiyatda avj olgan poraxo'rlik adib ijodida shunchaki oldi-berdi iqtisodiy jinoyat emas, aksincha, jamiyatning barcha bo'g'inlarini chirituvchi, yetimlar, himoyasiz ayollar va bolalar qismatiga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi. Jumladan, asardagi Mavluda obrazi agronom eri – Komil vafotidan so'ng uning boshlig'i sovxoz direktori – To'xtamish Omonturdiyev kabinetidagi shkaf tortmasidan tasodifan qog'ozlar ichidan allaqanday raqamlarda erining ham ismi familyasi va noqonuniy "mukofot" pul hisobi yozilgan ro'yxat topib oladi. Vohalangki, Komil bu pullarning hech birini olmaganligi, xotini esa dastlab bu nimani anglatishini tushunmay turadi, bilgach esa g'azabdan nafasi bog'ziga tiqiladi. "Bo'ringing og'zi yesa ham qon, yemasa ham...Komil aka bo'ri emasdi. Bunday bo'rilaridan hazar qilardi.

Lekin...baribir bo'rilar ro'yxatida ekanda. Pul olmasa ham oldi, deb hisoblasharkan-da.

Uning ulushini kim olgan? To'xtamishmi? O badnafs... Nafsi buzuq hayitda oladi, deyishardi, bu bo'rilarining hayiti qachon o'zi?" [T. Malik, 2018; 192].¹¹ Yuqoridagi keltirilgan jumlar orqali bilishimiz mumkinki, bu yerda, birinchidan, adolatsizlik muammosi ko'tarilib, jamiyatda haqqoniylik buzilganligini bildiradi. Ikkinchidan, esa poraxo'rlik, korrupsiya bilan bog'liq muammo, ya'ni ba'zi tizimlarda inson haqiqatni emas, o'z manfaatlarini ustun qo'yishi, shu bilan birga haqiqatni buzish orqali inson izzat-hurmatiga putur yetkazish jamiyatdagi ma'naviy inqiroz ekanligi izohlanadi. Shuningdek, jamiyatdagi ayrim kimsalarning qanday yo'l bilan bo'lsayam boyib borishi, bundan aholining ayrim yoqsil, kambag'al va yetim qatlamining yana-da qashshoqlashishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy tengsizlik hamdir. Jamiyatdagi mavjud tamagirlik yetimlar qismatida bir tomondan iqtisodiy to'siq bo'lsa, yana boshqa tarafdin ularning adolatga bo'lgan e'tiqodining asardagi xuddi Mavludaga o'xshagan yetim qahramonlar qismati orqali barham topganini ko'rishimiz mumkin. Adib bu orqali ushbu qusur va kamchiliklarni qattiq tanqid qiladi.

Ma'lumki, dunyoda inson obro'sini, qadr-qimmatini tushiradigan, uni muhim qarorlaridan chalg'itadigan jamiyatdagi ijtimoiy muammo maishatparastlik, yengil-yelpi hayot bu shunchaki ko'ngilxushlik emas, balki mas'uliyat hissini unutish va nafsning quliga aylanishdir.

Buning yaqqol misoli sifatida biz asarda Mavluda obrazining xiyonatkor otasi obrazida maishatparastlikning eng chirkin nuqtasi mavjudligiga guvoh bo'lamiz. U o'z oilasi, farzandlari va jufti haloli oldidagi muqaddas burchlaridan ko'ra vaqtinchalik aysh-ishratni, ko'chada topgan o'sha "ishq"ni ustun qo'yadi. Bu nafsiy buzuqlik oilaning darz ketishiga o'rtadagi ishonch va hurmatning yo'qolishiga hamda bolalarning tirik yetimga aylanishiga sababchi bo'ladi. Xuddi shuningdek, qissadagi direktor To'xtamish Omonturdiyev ham ishratbozlikning asl timsoli qilib ko'rsartiladi. Xususan: "Mana bu nima? Olma – dedi u vazadagi olmalarga imo qilib. So'ng qanotlarini yozdi-da, qizlarning yelkasidan quchdi. Olma, a? Endi hammamiz bir tishlamdan yeymiz. Shunday deb, bitta olmani to'rtga bo'ldi-da, ulushini og'ziga soldi. Boshqalar unga qo'shildi. Endi nima bo'ladi? Qizlar yelka qisib xiringlashdi. Endi Odam Ato bilan Momo Havoga nima deyilgan? Olmadan yema deyilgan.

¹⁰ A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y. – B. 5.

¹¹ Charxpalak. [Matn]: qissa /T.Malik. – T.: O'zbekiston Miliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 192.

Olmani yeb qo‘yishgandan keyin nima bo‘lgan? Xo‘sh qani ketdikmi? [T. Malik, 2018; 35].¹² Umuman olganda, kayf-safo ichkilikbozlik, maishatparastlik jamiyat uchun eng xavfli illat sanalib, insonni oliy maqsadlaridan voz kechib, faqatgina nafsi, vaqtinchalik ko‘ngilxushlik va aysh-ishrat ortidan quvishiga sabab bo‘ladi. Ichkilikka ruju qo‘ygan odam qissadagi xuddi To‘xtamish singari o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilolmasligi, oqibatida barcha qilayotgan tubanlik va pastkashliklari ham oddiy hayot tarziga aylanadi. Bora-bora unda mas‘uliyat hissi ham chekinib boradi. Shu o‘rinda, jamiyatda sodir etilayotgan ko‘plab qotilliklar, jinoyatlar, oilalarning buzilishi, bolalarning esa buning kasriga qolib, ota-ona mehridan mosivo, ma‘naviy yetim qolib, tarbiyasi izdan chiqib, ketishi, ko‘cha bezorilariga qo‘shilib, turli huquqbuzarliklar sodir etishi kabilarning bosh omili bu – ichkilikbozlikdir. Muallif ichkilikni insonning shunchaki zararli odati sifatida emas balki, jamiyatning barcha ildizlariga, ayniqsa, yoshlar kelajagiga bolta uradigan global muammo tariqasida barchani hushyorlikka chorlaydi.

Adibning ushbu qissasida tajovuzkorlik jamiyatdagi eng qaltis nafsga haddan ortiq berilish, o‘zini boshqara olmaslik, hislarini idora qila bilmaslik va ruhiy holatning buzilishi bilan bog‘liq tahlikali kechinma bo‘lib, bu kabi huquqbuzarlik, ayollar, ta‘kidlash joizki, yetimlarning haq-huquqlarining parokanda va ko‘plab oilalarning barbod bo‘lishiga sababchi illatdir.

Xususan, ushbu qissadagi Latofat obrazining “sevgi” niqobi ostida aldanishi va nomusining poymol bo‘lishi jamiyat himoyasiz qatlamining xavf ostida qolishini namoyon etish bilan birga, butun insoniy qadriyatlarining ham oyog‘osti bo‘lganligini ifodalaydi.

“Omonturdiyev bitta-bitta qadam bosib ketayotgan, xursiniqdan kifti silkinib-silkinib qo‘yayotgan qizga tikilib, “Shuni deb bir balo bo‘lmasam edi” deb qo‘ydi. Uzoq yillardan beri qilmagan ishini qildi: o‘zini la‘natladi. [T. Malik, 2018; 23].¹³ Bu jumladan anglashimiz mumkinki, yetimlar jamiyatning eng zaif va mehrga muhtoj qatlami. Va unga eng ko‘p kerak narsa ham mehr va e‘tibordir. Ushbu obrazning ojiz tomonidan foydalanib, asardagi Omonturdiyevga o‘xshagan razil, tuban, axloqan buzuq kimsalar yetimlardan turli g‘arazli niyatda foydalanib yurishi, nomussizlikda sharmanda qilib, o‘z qilmishini vijdotsizlik bilan boshqalarning bo‘yniga ilishga harakat qilishi, kabilar har qanday din, qadriyat va insoniy qonunlardan ko‘ra og‘ir gunoh, qabihlik va jinoyatdir. Shu bilan birga tajovuzkorlik bu – oddiy jinoyat emas, balki jamiyatning eng past darajaga tushganligini belgilovchi jirkanch qabohat sanaladi. Bunday illatlarga faqat qonun doirasida kurashishning o‘zi yetarli emas. Avvalo, u har bir insonning qalbidagi vijdoni, iymon-e‘tiqodi va mas‘uliyat tuyg‘usi orqali amalga oshiriladi, degan mazmun asar mohiyatiga chuqur singdirilgan. Jamiyatda yetimlik va u bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni bartaraf etish uchun faqat qonun-qoidalarning o‘zi yetarli emas. Birinchi navbatda oila mustahkamligini tiklash, o‘smirlar ma‘naviyatini yuksaltirish va yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash kerakligini jamiyat ongiga singdirish lozim. Tohir Malikning ushbu asari mana shu jihatdan har bir o‘quvchini hushyorlikka chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qissadagi yetimlik fojeasi nafaqat ota-onasiz qolish, balki borligiga-da qaramay, ularning mehr-muhabbatidan, kerak paytdagi nazorat va tarbiyasidan chetda qolish ham insonning butun hayotini izdan chiqarish mumkinligi mazmunan bayon etiladi. Shu bilan bir qatorda, oilalarning turli bahona-yu sabablar bilan buzilib ketishi, tarbiya jarayonidagi kamchiliklar, farzandlar kelajagiga mas‘uliyatsiz yondashish, ba‘zan panjara ortidan qarash jamiyatning ma‘naviy va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bolalarda tushkunlik va xavotir hissini paydo qiladi.

¹² Charxpalak. [Matn]. qissa. /T. Malik. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 35.

¹³ Charxpalak. [Matn]. qissa. /T. Malik. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 23.

Bu muammolar ko‘pincha bolalarning ruhan yetim bo‘lib, yolg‘izlanib qolishi yoki ota-ona mehridan to‘liq bahramand bo‘lolmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, oilaviy beqarorlik va noto‘g‘ri muhit, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ongida sharm-hayo, or-nomus, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarining qadrsizlanib, oyog‘osti bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda. Qadriyatlarining unutilishi esa jamiyatning ma‘naviy poydevorini, insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan halollik adolat to‘g‘rilik, poklik, axloq, odob va vijdonlilik kabi asosiy mezonlardan uzoqlashtiradi.

Natijada odamlar, ayniqsa, yoshlar orasida buzg‘unchilik, jinoyat, yolg‘onchilik, beparvolik, zo‘rovonlik, sotqinlik vafosizlik, xiyonat, ichkilikbozlik, o‘g‘rilik va giyohvandlik kabi odatlarga berilish avj oladi. Shuning uchun jamiyatda yuzaga keladigan bunday illatlarga qarshi kurashishning eng samarali chorasi ularning ildizini tag-tubi bilan yo‘qotish, ya‘ni tarbiya va ma‘naviy hayotni mustahkamlashdir. Shu bilan birga yoshlarning vaqtini samarali tashkil qilib, ularni ilm olishga, kitob o‘qishga, to‘garaklarga va foydali mashg‘ulotlarga jalb etish, muammolarni janjal yoki bosim o‘tkazish bilan emas, aksincha, sog‘lom muloqot, ularni iloji boricha tushunish, tinglash va sabr bilan hal qilish muhimdir.

Eng asosiy narsa – oilada tarbiya va ma‘naviyatni kuchaytirishdir. Chunki barcha salbiy illat va oqibatlarining boshlanishi ko‘pincha e‘tiborsizlik va ruhiy holatning vaqtida nazorat qilinmaganligi sababchi bo‘ladi va bunda inson qarorlaridan adashish, o‘zini boshqara olmaslik, nazoratni yoqotish va nojoya ishlarni anglab-anglamasdan bemalol amalga oshirish kabi tahlikali muhit domiga tushib qoladi. Shu bilan birga, yozuvchi Tohir Malikning barcha asarlari muvaffaqiyatini ta‘minlagan jihat bu adibning dardmandligi, tasvirga olgan kishilar qismatiga ruhan sherikligidir. Yozuvchi obrazlar xatti-harakatining tub sabablarini tadqiq qilishdan erinmaydi. U oqibatni, ya‘ni voqelikning tashqi tomonini ko‘rsatib qo‘ya qolishga shoshilmaydi.

Aksincha, har bir oqibat muayyan bir sababning mahsuli ekanligini insoniy taqdirilar orqali ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi mavzusidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib, so‘zlagan nutqidan.
2. Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)... diss. – Toshkent, 2022. B. 135.
3. Rasulova S. Tohir Malik qissalari poetikasi. Filol. fan. b. fals. dok. diss. – Toshkent, 2025.
4. Norboboyeva M. “Alvido bolalik” qissasida yetim bola obrazining poetik talqini //jamiyat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021.
5. Charxpalak. [Matn]: qissa / T. Malik. – Toshkent. – “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
6. Rahimova D. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuvi mazmuni. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya” nomli ilmiy-amaliy konferensiya. <http://doi.org/10.5281/zenodo.10200181>. 21-oktyabr 2023 y.
7. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. – O‘qituvchi. 1992 y.
8. <http://www.nuu.uz>.
9. <http://www.degitre.fr/livres>.